

TARJIMASHUNOSLIKDA RAQAMLI TEXNALOGIYARDAN FOYDALANISH VA TARJIMA SOHASIDA ULAR USTIDA TADQIQOTLAR

Uzoqboyeva Gulchiroy Baxtiyor qizi

O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti, 1-kurs talabasi

uzoqboyevagulchiroy640@gmail.com

+998930460631

Ilmiy rahbar: Xodjaveva S.S.

Annotatsiya: Mazkur tezisdA tarjimashunoslikda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi yoritiladi. Unda mashinaviy tarjima, kompyuter yordamida tarjima dasturlari va onlayn vositalarning tarjima jarayonidagi o'zni qisqacha tushuntiriladi. Oddiy misollar orqali raqamli texnologiyalarning tarjimonlar va talabalar uchun qulayliklari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, tarjima sifatini oshirishda ushbu texnologiyalarning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, raqamli texnologiyalar, mashinaviy tarjima, CAT dasturlari, Google Translate, tarjima jarayoni, tarjima sifati

Аннотация: В данной диссертации рассматривается использование цифровых технологий в переводе. Кратко объясняется роль машинного перевода, программ автоматизированного перевода и онлайн-инструментов в процессе перевода. Удобство цифровых технологий для переводчиков и студентов демонстрируется на простых примерах. Также подчеркивается важность этих технологий для повышения качества перевода.

Ключевые слова: переводоведение, цифровые технологии, машинный перевод, программы автоматизированного перевода, Google Translate, процесс перевода, качество перевода

Abstract: This thesis discusses the use of digital technologies in translation studies. It briefly explains the role of machine translation, computer-aided translation programs, and online tools in the translation process. The convenience of digital technologies for translators and students is demonstrated through simple examples.

The importance of these technologies in improving translation quality is also emphasized.

Keywords: translation studies, digital technologies, machine translation, CAT programs, Google Translate, translation process, translation quality

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Natijada, ko‘plab kasblar zamonaviy sharoitlarga moslashishi kerak. Tarjimon kasbi ham bundan mustasno emas. Bu shuni anglatadiki, bugungi voqelikda tarjima bilan shug‘ullanadigan mutaxassis nafaqat tarjima qobiliyatlarini egallashi, balki axborot jamiyatida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda tarjima sohasida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Kompyuter va internet yordamida tarjima qilish tarjimonlar ishini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Tarjimashunoslikda bu texnologiyalar tarjima sifatini yaxshilash va vaqtni tejash uchun ishlatiladi. Masalan, **Google Translate** kabi onlayn tarjima dasturlari oddiy matnlarni tez tarjima qilishga yordam beradi. Talabalar ushbu vositalardan yangi so‘zlarning ma’nosini bilish yoki qisqa matnlarni tushunish uchun foydalanishlari mumkin. **DeepL** tarjima dasturi esa gaplarning mazmunini aniqroq berishga harakat qiladi. Bundan tashqari, **CAT dasturlari** (masalan, SDL Trados) tarjima xotirasi orqali avval tarjima qilingan jumalarni saqlab qoladi. Bu esa bir xil so‘z va iboralarni qayta-qayta tarjima qilmaslikka yordam beradi. *Masalan*, texnik matnlarda bir xil terminlar ko‘p uchraydi va CAT dasturlari ularni bir xil tarjima qilishni ta’minlaydi.

Mashina tarjimasi tizimlari dastlab qoida asosidagi (Rule-Based MT) va statistik (Statistical MT) modellaridan neyron tarmoqlar (Neural MT- NMT) modellariga o‘tdi. NMT, xususan, transformer arxitekturasini tarjima sifatini yangi darajaga olib chiqdi. NMT matnning keng kontekstini tushunish, so‘zlarning turli ma’nolarini (polisemiya) ajratish va tabiiyroq sintaktik tuzilmalarni yaratishda ancha samaralidir. Biroq, bu vositalar hali ham inson-tarjimon kabi chuqur madaniy bilimga ega emas.

Masalan, NMT tizimlari ko‘pincha idiomatik iboralar va frazeologizmlarni so‘zma-so‘z tarjima qiladi. Kontekstga bog‘liq gender yoki hurmat darajalari (masalan, o‘zbek tilida "Sen" va "Siz") kabi lingvistik farqlarni hisobga olmaydi. "Kichik tillar" (low-resource languages) uchun ma'lumotlar bazasining yetarli emasligi sababli tarjima sifati past bo‘ladi. Tarjimaning sifati nafaqat grammatik to‘g‘rilik (lingvistik adekvatlik), balki tarjima matnining qabul qiluvchi madaniyat uchun ma‘no va hissiyotni to‘liq yetkazib berishi (madaniy adekvatlik) bilan ham belgilanadi. Lingvistik adekvatlikdagi muammolar: *Ko‘p ma’noli so‘zlar (polisemiya)*: Kontekstni yetarli darajada tushunmaslik natijasida noto‘g‘ri ma‘no tanlanishi. *Sintaktik moslik*: Ba‘zan natijaviy matnning jumlar tuzilishi (Word Order) tarjima qilinayotgan tilning qoidalariga to‘liq mos kelmasligi. *Madaniy realiyalar*: Muayyan madaniyatga xos bo‘lgan tushunchalar, masalan, taomnomlari, ijtimoiy unvonlar, tarixiy joylar nomlari (o‘zbekcha “osh”, “mahalla”, “aka”) MT tizimlari tomonidan noto‘g‘ri izohlanishi yoki shunchaki transkripsiya qilinishi. *Hissiy (emotional) ton*: Ijtimoiy tarmoqlar, reklama va diplomatik matnlardagi ohang, yumor yoki satira kabi nozik farqlarni MT to‘liq yetkazib bera olmaydi. *Gibrid MT tizimlarini ishlab chiqish*: NMT tizimlarini qoida asosidagi modullar bilan birlashtirish orqali madaniy realiyalar va idiomalar kabi nozik joylarga qoida asosida yondashish. *Masalan*, Qoida + Neyron Tarjima M: tezlik- yuqori, hajm– cheksiz, lingvistik adekvatlik- o‘rtacha, madaniy adekvatlik-past kabi misollar bilan ayta olamiz. *So‘zlashuv / Korpusga yo‘naltirilgan ma‘lumotlar bazasini kengaytirish*: Kichik tillar (jumladan, o‘zbek tili) uchun tarjimonlar tomonidan tasdiqlangan va madaniy kontekstni o‘zichiga olgan parallell korpuslar yaratish. *Post-editlashning ahamiyati* [7]: Tarjima jarayoniga malakali inson-tarjimonning MT post-editlashi (MTPE) bosqichini kiritish. Bu MT samaradorligi (tezligi) bilan insontarjimonining sifati (adekvatligi) o‘rtasida muvozanatni ta‘minlaydi. *MTni o‘qitishga madaniyatshunoslik modullarini kiritish*: MT tizimlarini nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham o‘qitish.

A. Pym ta’kidlaganidek, “texnologiyalar tarjimon ishini almashtirmaydi, balki uni qo‘llab-quvvatlaydi”, bu esa raqamli vositalarning tarjima jarayonidagi muhim rolini ko‘rsatadi [5].

Globalizatsiya davrida sun‘iy intellektga asoslangan tarjima vositalari tarjimashunoslik sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Texnologik taraqqiyotga qaramay, lingvistik aniqlikni, ayniqsa, madaniy adekvatlikni to‘liq ta‘minlash MT tizimining asosiy muammosi bo‘lib qolmoqda. Bu muammoni hal etish uchun inson-tarjimon tajribasi va malakasini yangi texnologiyalar bilan birlashtirgan gibrid yondashuv (Inson va MT hamkorligi) eng samarali yo‘l hisoblanadi. Kelajakdagi tadqiqotlar MT tizimlarining madaniy kontekstni tushunish qobiliyatini yanada chuqurlashtirishga qaratilishi lozim.

Tarjimashunoslikda raqamli texnologiyalar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar tarjima sifati, avtomatik tarjimaning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlashga qaratilgan. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar tarjima jarayonini innovatsion bosqichga olib chiqib, tarjimon kasbining rivojiga yangi yo‘nalishlar ochmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Cholewska, D. (2021, August). Machine translation post-editing (MTPE) from the perspective of translation trainees: Implications for translation pedagogy. In Proceedings of machine translation summit XVIII: Users and providers track. 200-210.
- 2.Hutchins W. J., Somers H. L. (1992). *An introduction to machine translation*. Academic Press.
- 3.Hutchins, J. (2003). Machine translation and computer-based translation tools: What’s available and how it’s used. *A new spectrum of translation studies*, 13-48.
- 4.Munday J., Pinto S. R., Blakesley J. (2022). *Introducing translation studies: Theories and applications*. Routledge.
- 5.Pym, A. *Exploring Translation Theories*. London: Routledge, 2010.
- 6.<https://www.alba-translating.ru/ru/ru/articles/2022/>
- 7.<https://poeditor.com/blog/machine-translation-post-editing/>